

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI
“IQTISODIYOT” FAKULTETI
«BUXGALTERIYA HISOBİ VA AUDIT» KAFEDRASI

“HIMOYAGA TAVSIYA ETILADI”

“BH va A” kafedrasi mudiri
_____ dots. O.Xushmuradov
“ _____ ” _____ 2013 yil

“TASDIQLAYMAN”

“Iqtisodiyot” fakulteti dekani
_____ i.f.d. A.Xurramov
“ _____ ” _____ 2013 yil

**“Kasb hunar kollejlari da byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan moliyalashtirishning hisobga olishning o'ziga xos xususiyatlari”
(Koson maishiy xizmat kasb-hunar koller i misolida) mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi:

“G'aznachilik” ta'lim yo'nalishi
Bitiruvchi IV-kurs G'-41 guruh
talabasi Sul'tonova Latofat

Ilmiy rahbar:

“Asakabank” (OAJ) Qashqadaryo
viloyati filiali bo'lim boshlig'i
T.Ergashev

Bitiruv malakaviy ishi kafedrada dastlabki himoyadan o'tdi
15-sonli 17 iyun 2013 yil

Qarshi-2013 yil

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I-bob. Davlat budgetining mohiyati va ahamiyat.....	5
1.1. Budget va budgetdan tashqari mablag'larning mohiyati va ahamiyati.....	5
1.2. Budgetdan tashqari mablag'lar hisobidan moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	9
II-bob. Kasb-hunar kollejarining buxgalteriya hisobi va moliyalashtirish tahlili.....	12
2.1. Budget tashkilotlarini buxgalteriya hisobining yuritilishi.....	12
2.2. Koson maishiy xizmat kasb-hunar kollejini budgetdan tashqari.....	18
mablag'larini hisobga olinishi tahlili.....	20
III bob. Budgetdan tashqari moliyalashtirishni takomillashtirish yo'llari.....	21
Xulosa.....	23
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	24

Kirish

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi: Yurtimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida qo'lga kiritilayotgan yuksak natijalar, eng avvalo, yangidan-yangi zamonaviy tarmoq va ishlab chiqarish quvvatlarining yo'lga qo'yilishi, buning ta'sirida mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatining sezilarli darajada ortib borayotgani, yaratilayotgan mahsulot va ko'rsatilayotgan xizmat turlarining ko'payib, sifatining tubdan yaxshilanib borishi, bir so'z bilan aytganda, iqtisodiyotimizning yangicha mazmun va mohiyat kasb borishida nustaql taraqqiyot yo'lining to'g'ri tanlangan, amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosat strategiyasining har tomonlama puxta asoslangan hamda xalqimizning fidokorona eng muhim va asosiy omil bo'lib hizmat qilmoqda. Bu omillarning yagona maqsadi-yurt tinchligi va ravnaqi, xalqimiz farovonligi yo'lida jamiyatimiz doimo xamjihat bo'lib kelayotgan o'ta murakkab mustaqil taraqqiyot yo'lini bosib o'tishda naqadar og'ir sinovlardan muvaqqiyatli o'tishga imkon yaratdi. Birgina misol, 2008-yilda boshlangan, bugungi kunga qadar salbiy ta'siri va oqibatlari saqlanib kelayotgan, keying yillarda rivojlangan mamlakatlarda o'zining yangi "hujumi" ni namoyon etayotgan jahon moliyaviy-inqirozi nafaqat ayrim mamlakatlar, balki dunyoning barcha qit'alarida iqtisodiy siyosatning zaif jihatlarini, ayniqsa, bank moliya tizimining "mo'rt" bo'g'inlarini oshkor etib qo'ydi. Ana shunday murakkab bir sharoitda mamlakatimiz iqtisodiyoti, bizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot modelimiz yana bir bor hayot sinovidan muvaffaqiyatli o'tib, o'zini to'la oqlagani har qanday e'tirof va e'tiborga mujnosibdir.

O'tgan 2012-yil ham mamlakatimiz ijtimoiy hayotining turli jabhalarida yangi yutuq va natijalarga juda boy bo'ldi. Prezidentimiz I.A.Karimov 2012-yilning 19-yanvarida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yilning asosiy va 2012-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisdagi ma'ruzasida jahonda e'tirof etilgan taraqqiyotning o'zbek modeli hamda Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish tendensiyasining ustuvor yo'nalishlarini izchil amalga oshirish natijasida dunyo iqtisodiyotida yuz berayotgan inqiroz holatlariiga qaramasdan 2012-yilda mamlakatimizda iqtisodiyotning yuqori barqaror o'sish sur'atlari va makroiqtisodiy mutanosibligini ta'minangani qayd etildi. Ma'lumki yurtimizda jahon moliyaviy inqirozning salbiy ta'sirlariga qarshi ko'rilayotgan chora tadbirlar samaradorligi xalqaro valyuta jamg'armasi, jahon banki, osiyo taraqqiyot banki singari nufuzli xalqaro moliyaviy va iqtisodiy institutlar tomonidan yuqori baholanmoqda.

O'zbekiston Respublikasida budget tizimi taraqqiyotining hozirgi bosqichi davlatning yaxlit budgeti va ijtimoiy siyosatining manfaatlari mushtarakligini ta'minlash asosidagi o'ta ma'suliyatli vazifalarni samarali boshqarilishini talab qilmoqda.

Bunda yalpi jihatni ajratib ko'rsatish muhimdir.

Birinchidan, davlat ijtimoiy siyosatining joylardagi ijobiy ijrosi yoki hududiy iqtisodiyot muammolari keskinlashuvini oldini olishdir, ikkinchidan

mahalliy budjetlar huquq va majburiyatlarining kengayib borishi sharoitida shuncha mos tarzda yangilanish imkoniyatlarni yaxshilashning zarurligidir.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti ta'kidlaganidek, "Joylarda ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyot muammolarini muvaffaqiyatli va moliyaviy hududiy iqtisodiyot muammolari keskinlashuvining oldini olishdir, ikkinchidan budjet tashkilotlari mablag'lari shuncha mos tarzda ular imkoniyatlarini yaxshilashning zarurligidir." Ushbu har ikki jihatning o'zaro bog'liq tarzda birgalikda olib borilishi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi kundagi o'ta muhim muammosini ijobiy hal etishga imkon beradi.

Budjet harajatlari tashkilotlari smetasi asosida sarflanadi.

Budjet tashkilotlarini budjetdan tashqari mablag'larini shakllantirish va hisobga olish va takomillashtirilshni taqozo etadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: budjet va budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan moliyalashtirish hisobga olish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqarishdan iborat.

Davlat daromadlari bilan bog'liq bo'lgan ayrim masalalar O'zbekiston iqtisodchi olimlari va amaliyotchi mutaxassislari T.Malikov, G.Qosimova, Vahobov, M.Yo'ldoshev, O.Olimjonovlarning ilmiy ishlarida ham yoritilgan.

Ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- budjet va budjetdan tashqari mablag'larni shakllantirishga asoslangan;
- Davlat daromadlarini obyektiv zarurligi qo'shimcha ravishda asoslangan;
- bozor iqtisodiyotini hisobga olgan holda davlat daromadlarining mexanizmini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari belgilangan;
- budjet tashkilotlari xarajati yo'nalishlari belgilangan.

Bitiruv malakaviy ishning obyekti: Koson maishiy xizmat kasb-hunar kolleji.

Tadqiqot predmeti bo'lib: budjet va budjetdan tashqari mablag'larnimoliyalashtirish yo'llari va hisobini olish xususiyatlari hisoblanadi.

Tadqiqot metodlari: qiyosiy, tarkibiy va tashqi tahlil, kuzatish, umumlashtirish usullari.

Bitiruv malakaviy ishning nazariy uslibiy asoslari: bitiruv malakaviy ishning nazariy asosini iqtisodiy jarayonlar va shu jumladan davlat daromadlari hamda boshqa iqtisodiy muammolarni ilmiy o'rganishga bag'ishlangan ilmiy nazariy asarlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi tomonidan qabul qilingan qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qator farmonlari, O'zbekiston Respublikasining davlat soliq qo'mitasining me'yoriy hujjatlari, Markaziy bankning me'yoriy hujjatlari tashkil etadi.

I bob. Davlat budjetining mohiyati va ahamiyati.

1.1. Budjet va budjetdan tashqari mablag'larning mohiyati va ahamiyati.

Jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy tarkibi shakllanishi va rivojlanishida davlatning tartibga solish funksiyasi muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida davlatning iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini amalga oshirishning mexanizmlaridan biri jamiyatning moliya tizmi hisoblanib, uning markaziy bo'g'inini davlat budjeti tashkil etadi.

Davlat budjeti orqali mamlakat miqyosida YaIM taqsimlanish jarayonida davlat ixtiyoridagi markazlashtirilgan pul fondi shakllantirildi.

Budjet davlat daromadlarining asosiy qismini o'zida jamlaydi va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy vazifalarini amalga oshirish uchun zaruriy pul mablag'lari fondini o'zida aks ettiradi.

Jamiyat taraqqiyotida xo'jalik mexanizmining bosqichma-bosqich takomillashib borishi davlatlarni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tizimidagi ortishi ularning ixtiyorida ijtimoiy ishlab chiqarish yaratiladigan qo'shimcha qiymatlarning bir qismi hisobga doimiy ravishda pul resurslarini shakllantirishning obyektiv zarur qilib qo'yadi. Bunday davlat ixtiyoridagi markazlashtirilgan pul fondlarining asosiy shakli budjet bo'lib, budjet davlatning asosiy moliyaviy rejasi hisoblanadi.

Bozor munosabatlariga o'tilishi va davlat boshqaruvining demokratik tamoyillarini shakllantirish asoslaridan biri bo'lgan iqtisodiyot erkinlashtirishning hozirgi sharoitida makro va mikro darajadagi moliyaviy resurslar oqimlarining barqaror mexanizmlarini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy resurslar oqimlarini mujassamlashtirish iqtidiyotni rivojlantirishning o'zaro nisbiyligini va tengligini ta'minlaydi, iqtisodiyotni turli sektorlari va sohalari rivojlanishi va samarali ishlashini ta'minlaydi hamda buudjet daromadlari va harajatlarining muvofiqligi ta'minlanadi.

Davlat budjeti mohiyati ham davlatning qo'lida markazlashtirilgan pul jjamg'armalari tashkil etilishi va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini amalga oshirish bilan bog'liq harajatlarni moliyalashtirish uchun kengaytirilgan ijtimoiy takroro ishlab chiqarish jarayoni natijasida yaratilgan qiymatni bir qismi hisobiga markazlashtirilgan pul fondlarini shakllantirish bilan bog'liq pul munosabatlarini bildiradi.

Budjet munosabatlari-jamiyat iqtisodiy tizimining ajralmas qismi uning amal qilishi davlat tomonidan unga tegishli funksiyalarni bajarishi uchun zaruriy moliyaviy bazani shakllantirish bilan obektiv ravishda aniqlanadi.

Davlat budjeti orqali jamiyatda yaratilgan YaIM qayta taqsimlanadi.

YaIMning qayta taqsimlanishi jamiyatdagi umumiy ehtiyojlar: maorif, sog'liqni saqlash, mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy barqarorlik, aholi tarkibida ijtimoiy himoyaga muxtoj qatlamni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, tinchlik, chegaralar dahlsizligini saqlash va favqulodda holatlar uchun saqlanadigandavlat zaxiralarining mavjud bo'lish zarurati tufayli kelib chiqadi. Shuningdek, davlat budjeti orqali davlat jamiyatning ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir

qilishining moliyaviy dastklariga ega bo'ladi. Davlat budjeti davlatning asosiy moliyaviy rejasi sifatida davlat hokimiyatining iqtisodiy imkoniyatlarini asosini yaratadi.

Demak, bir tomondan budjetning paydo bo'lishi davlatning paydo bo'lishi bilan bevosita bo'g'liq bo'lib, ikkinchidan, bozor iqtisodiyoti sharoitida jamiyatning ijtimoiy iqtisodiy sohalaridagi davlat islohotlarini amalga oshirishining asosiy instrumanti sifatida budjetning sifat belgilariga aniqlik kiritadi.

Budjet-murakkab iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Chunki uning moddiy asosini kengaytirilgan ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayoni tashkil qiladi. Budjet sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish jarayonida birinchi darajadagi vazifa uning moddiy mazmunini o'zida aks ettiruvchi takror ishlab chiqarish nisbatlari buzilishiga salbiy ta'sir etmasligi lozim. Aks holda asoslanmagan budjet siyosati natijasida ishlab chiqarish jarayonidagi tanazulliklarga olib kelinadi va oxir oqibat davlat budjeti daromadlari shakllanishida ham muammolar paydo bo'ladi.

Budjet munosabatlari davlat bilan xo'jalik subyektlari hamda aholi o'rtasidagi qiymat taqsimlanishi jarayonida paydo bo'luvchi moliyaviy munosabatlardir. Bunday moliyaviy munosabatlarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, birinchidan, yuqorida ta'kidlaganimizde ijtimoiy ishlab chiqarishning taqsimlash bosqichida vujudga keladi, ikkinchidan, marakazlashtirilgan moliyaviy resurslarni shakllantirish va undan davlat manfaatllari yuzasidan foydalanishga yo'naltirilgan.

Davlat manfaatllari esa bu ijtimoiy manfaatlar hisoblanadi. Zero, taniqli iqtisodchi J.M.Keyns ta'kidlaganidek, "Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy manfaatlar faqatgina davlatlarda o'z ifodasini topadi".

Budjet davlatning asosiy markazlashtirilgan moliyaviy resurslar fondi sifatida o'ziga xos ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Demak, davlat budjeti iqtisodiy kategoriya sifatida iqtisodiyotning davlat tomonidan tartibga solish tizimida markaziy bo'g'inda ishtirok etishi bilan aholining ma'lum qatlami manfaatllarini o'zida aks ettiradi. Bu tushunchada budjet munosabatlari o'zida iqtisodiy rivojlanishning aniq falasafasi va ideologiyasini aks ettiradi.

O'zining moddiy mazmuniga ko'ra, davlat budjeti-davlatning markazlashtirilgan pul mablag'lari fondining shakllantirish va undan foydalanishning alohida shaklidir, ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatiga ko'ra esa milliy daromadning taqsimlanishining asosiy qurolidir.

Davlat budjeti moliya tizimining markaziy bo'g'inini tashkil qiladi. Shuning uchun davlat budjeti moliyaning ayrim o'ziga xos sifati belgilarini o'zida namoyon qiladi.

Davlat bilan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar aholi o'rtasida yuzaga keluvchi moliyaviy munosabatlar budjet munosabatlari hisoblanadi. Shuningdek, budjet munosabatlarining moliyaviy munosabatlardan farqi 4 jihatlari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

- budget davlat qo'lida milliy daromadning bir qismini jamlash, ijtimoiy ehtiyojlar vva alohida davlat-hududiy tuzilmalar uchun undan foydalanish bilan bog'liq qayta taqsimlash munosabatlarining alohida iqtisodiy shakli hisoblanadi;

- budget yordamida milliy daromadning bir qismi va ayrim holatlarda milliy boylik xalq xo'jaligining tarmoqlari, mamlakat hududlari, ijtimoiy faoliyat sohalri o'rtasida qayta taqsimlanadi;

- qiymatni budget orqali qayta taqsimlash nisbati moliyaning boshqa bo'g'inlariga nisbatan yirik miqdorda tashkil qiladi va keygaytirilgan takror ishlab chiqarish ehtiyojlari va jamiyat rivojlanishining har qaysi tarixiy bosqichlarida uning rivojlanishi oldidagi vazifalari orqali aniqlanadi;

- budgetni taqsimlash sohasi davlat moliyasida markaziy o'rinni egallab, moliyaning boshqa bo'g'inlariga nisbatan budget muhim ahamiyatga ega;

- budget munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri ular YaIM va milliy daromadning taqsimlanishi jarayonida davlat ixtiyorida markazlashtirilgan pull munosabatlari tizimidir.

Davlat budgetiga ta'rif berilganda uning iqtisodiy kategoriya va huquqiy kategoriya sifatida xususiyatlariga alohida ahamiyat berish kerak.

Iqtisodiy kategoriya sifatida Davlat budjeti-ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'lgan YaIM va milliy daromadni taqsimlash jarayonida ddavlat va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari ehtiyojlari uchun zaruriy markazlashtirilgan pul fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish bilan bog'liq imperative tavsifdagi pul munosabatlari tizimi hisoblanadi.

Huquqiy kategoriya sifatida, Davlat budjeti-davlat pul munosabatlarining markazlashtirilgan jamg'armasi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratilgan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Demak, budget iqtisodiy mohiyatni nuqtai nazardan mustaqil iqtisodiy kategoriya sifatida ko'rib o'tiladigan bo'lsa davlatning moliyaviy asosini qonuniy o'rnatilishi nuqtai nazardan esa budget davlatining asosiy moliyaviy rejasi sifatida ko'rib o'tiladi.

Proessor L.A.Drobozina "pul mablag'larining asosiy markazlashtirilgan fondi",-deb ta'kidlaydi. Professor A.Y.Kazak esa "... asosiy moliyaviy reja sifatida ... muhim moliyaviy to'g'rilovchi sifatida ... pul munosabatlarining ... majmuasidir",-deb ta'kidlaydi. Mazkur ta'riflardan ham ko'rinib turibdiki, aksariyat iqtisodchi olimlarning budget kategoriyasiga yondashuvida mantiqning yaxlit qoidasiga rioya qilinmaydi.

Fikrimizcha, Davlat budjeti tushunchasida uning iqtisodiy kategoriya sifatidagi va mamlakatning asosiy moliyaviy rejasi sifatidagi talqinlarini bir-biridan farqlash lozimdir. Iqtisodiy kategoriya sifatida budget obektiv xarakterga ega bo'lgan pul munosabatlari tizimi sifatida qaraladi.

Moddiy ma'noda budget-tegishli darajadagi davlat va mahalliy hokimiyat idoralari faoliyatini ta'minlovchi, ular oldiga qo'yilgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy vazifalarni bajarish imkonini beruvchi markazlashtirilgan pul mablag'lari fondidan iborat. Davlat tomonidan rejalashtirilgan tadbirlarni budget hisobidan moliyaviy ta'minlash deganda budgetning aynan ana shu moddiy ma'nosi ko'zda tutiladi.

“Budjet” va “Moliya” kategoriyalari bir-birini to’ldiruvchi kategoriyalar hisoblanadi.

Har ikkala kategoriya ham ma’lum sifat belgilariga egadir.

Chunonchi, moliyaning o’ziga xos xususiyatlaridan biri taqsimlash tavsifiga egadir. Budjet ham taqsimlash tavsifiga ega bo’lib, moliyaning birlamchi taqsimlash jarayonida emas balki qayta taqsimlash jarayonida vujudga keladigan pul munosabatlari hisoblanadi. Demak, budjet qayta taqsimlash kategoriyasi hisoblanadi.

Moliyaning yana bir xususiyati belgisi pul munosabatlariga egaligi hisoblanadi. Budjet ham munosabatlari tavsifiga egadir. Chunki, qiymatni taqsimlash jarayonida vujudga keladigan pul munosabatlari hisoblanadi. Moliyaning o’ziga xos xususiyatli belgilaridan biri, fondli xususiyatga egaligi hisoblanadi. Moliyaga-YaIM va milliy daromadni taqsimlashda markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul fondlarini shakllantirish va undan foydalanish bilan bog’liq pul munosabatlari hisoblanadi deb ta’rif beriladi.

Davlat budjetining asosiy funksiyalari.

Budjetning iqtisodiy kategoriya sifatidagi mohiyati uning funksiyalarida yaqqolroq namoyon bo’ladi. Budjetning iqtisodiy mazmunini yoritishga bag’ishlangan moliyaviy-iqtisodiy adabiyotlarda budjetning funksiyalari nuqtai nazaridan turli iqtisodchilarning fikr muzokaralarini kuzatishimiz mumkin. Masalan, V.M.Rodianova budjetni taqsimlash va nazorat funksiyalarini talqin qiladi. Shuningdek, muallif moliyaga tegishli funksiyalar sifatida ham taqsimlash va nazorat funksiyasini bajarishni ham taklif qiladi.

Faqatgina bu yerda budjetning taqsimlash funksiyasini taqsimlash jarayonining 2-bosqichida amal qilishiga e’tibor berishimiz lozim.

Fikrimizcha ijtimoiy sohalarni moliyalashtirish va umuman ijtimoiy ziddiyyatlarni xal qilishda budjet muhim rol o’ynaydi.

Shuni ta’kidlash joizki, hozirgi sharoitda budjet vositasida milliy daromadning sezirarli qismi qayta taqsimlanib, moliyaning boshqa hech qaysi bo’g’ini tarmoqlar, hududlar va iqtisodiyotning sohalari, davlat hokimiyatining markaziy va mahalliy darajalarida mablag’larni bunday yirik miqdorda qayta taqsimlash imkoniyatiga ega emasdir.

Budjetga ta’sir qiluvchi obektiv omillarga jamiyatdagi ishlab chiqarish munosabatlari va jamiyatning rivojlanish darajasi, milliy daromadning qay darajada taqsimlanishi kabi omillar kiradi.

Subyektiv omillarga esa davlatning shakli o’tkazilayotgan islohotlar va siyosat yo’nalishi kiradi.

Budjet daromadlari va xarajatlari ijtimoiy tuzumlarda turli yo’nalishlarga ega bo’lgan.

Budjet xarajatlari sotsialistik tuzumda asosan xalq xo’jaligini rivojlantirish uchun sarflanar edi.

Mustaqillik yillarida iqtisodiyotni bozor munosabatlari asosida shakllantirish jarayonida ijtimoiy ishlab chiqarishni tartibga solishda budjetning ham roli o’zgardi.

1.2. Budjet va budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari

Davjat budjetidan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlari budjetdan ajratilgan mablag'lardan tashqari boshqa daromadlarga ham ega bo'lib, ular budjetdan tashqari mablag'lar deb ataladi. O'zbekiston Respublikasi vazirlar maxkamasining 1999-yil 3 sentabrda qabul qilingan "Budjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tarkibini takomillashtirish to'g'risida"gi 414- sonly qaroriga muvofiq yuridik shaxs maqomiga ega budjet tashkilotlari budjetdan tashqari qo'shimcha daromadlarga ega bo'ladi va tegishli tartibda foydalaniladi.

Hozirgi paytda budjet tashkilotlariga qo'shimcha ravishda 2000-yildan boshlab quyidagi budjet tashkilotlari va muassasalariga yuridik shaxs maqomi berilishi mumkin:

1) Maorif sohasida:-kasb- hunar kollejlari, professional texnika o'quv yurtlari va bolalar uylariga, barcha turdagi umumta'lim maktablari, gimnaziyalar, litselar, maktablararo o'quv- ishlab chiqarish kombinatlariga- o'quvchilar kontingenti 400kishidan kam bo'lmaganda;-internatlarga-o'quvchilar muassasalariga kontingenti 350 kishidan kam bo'lmaganda;-viloyat va tuman ahamiyatiga molik maktabdan tashqari muassasalarga;

2) Sog'liqni saqlash sohasida:-kasalxonalar, tug'riqxonalar, tibbiy sanitariy qisimlar, dispanserlar, shifoxonalarga;-bolalar uylari, bolalar sanatoriyalari; - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999-yil 10-martdagi 100sonli qaroriga muvofiq tajriba tariqasida ochilgan qishloq tibbiyot punktlari.

Yuqorida ko'rsatilgan budjet tashkilotlariga yuridik shaxs maqomi moddiy-texnika bazasi va soxasi bo'yicha xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanishi uchun sharoitlar hamda buxgalter kadrlar mavjud bo'lgandagina beriladi.

Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan budjet tashkilotlari moliyalashtirishning quyidagi qo'shimcha daromad manbalariga ega bo'lishi mumkin:

- Faoliyat turi bo'yicha tovarlar ishlab chiqarishva sotishdan tushgan daromadlar;

- budjet tashkilotlari tomonidan vaqtincha foydalanilmayotgan binolarni va davlatning boshqa mol-mulkini boshqa tashkilotlarga ijaraga berishdan tushgan daromad;

- Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan budjet tashkilotlariga ko'rsatilgan homiylik yordami hisobidan tushgan daromadlar.

Qo'shimcha daromadga ega bo'lgan budjet tashkilotlariga "Budjet tashkilotini rivojlantirish" jamg'armasini shakllantirish huquqi berilgan va bu jamg'arma quyidagilar hisobiga shakllantiriladi.

1) Rejali tartibda budjetdan moliyalashtirish hisobiga tushgan va hisobot choragining oxirgi ish kuni oxirida budjet tashkilotlari hisob varaqlarida tejab qolingan mablag'lar;

2) Budjet tashkilotlari faoliyati turiga muvofiq tovarlar ishlab chiqarish va sotishdan olingan daromadlar;

3) Budjet tashkilotlarida vaqtincha foydalanilayotgan binolarni va davlatning boshqa mol-mulkini boshqa tashkilotlarga ijaraga berishdan olingan

mablag'larining 50% I, mablag'larning qolgan 50%ini budjet tashkilotlari mahalliy budjetlar daromadiga o'tkazadilar;

4) Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan budjet tashkilotlariga berilayotgan homiylik yordamlari.

Budjet tashkilotidagi vujudga kelgan kreditorlik qarzi xarajatlar smetasiga ilovada nazarda tutilgan xarajatlar to'lanmaganligi yoki xarajatlarning xar qaysi guruhi bo'yicha belgilangan limitlarning oshib ketganligi sababli paydo bo'lgan bo'lsa, to'liq hajmda budjetdagi mablag' bilan ta'minlangan sharoitda tashkilotini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari ishlar, xizmatlar, tovarlar ishlab chiqarish va sotish bo'yicha jami xarajatlar qoplangan so'ng avvalo xarajatlarning to'lanmagan qismi va belgilangan limitlarning ortib ketgan miqdori doirasida kreditorlik qarzlarini qoplashga yo'naltiriladi.

Budjet tashkilotlari xarajatlari smetasi tasdiqlangan va ro'yhatdan o'tkazilgandan so'ng moliyalashtirish amalga oshiriladi.

Budjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash 1999-yil 3-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Budjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida" gi 414-sonli qarori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 19-iyuldagi 148-son qarori bilan o'zgartirishlar kiritilgan tartibi asossida amalga oshiriladi.

Budjet tashkilotlari xarajatlarni takomillashtirishning mazkur tartibida quyidagilar nazarda tutilgan:

- Budjet mablag'laridan tejab, samarali va aniq foydalanish hamda budjet intizomini mustahkamlash uchun budjet tashkilotlari rahbarlarining mustaqilligini va ma'suliyatini oshirish;

- Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni, ish haqiga qo'shimchalar, capital qo'yilmalar va boshqa xarajatlarni guruhlagan holda bir satrda mablag' bilan ta'minlash usulida budjet tashkilotlarini normativlar bo'yicha budjet tashkilotlari xarajatlari moliyalashtirishning yangi tartibini joriy qilish, g'azna ijrosiga o'tgan, xarajatlari moddalar bo'yicha amalga oshiriladigan budjet tashkilotlari bundan mustasno;

- Davlat budjetiddan mablag' oluvchilarning mablag'larini sarflashlari ustidan dastlabki va joriy nazoratni ta'minlash;

- Budjet tashkilotlari xodimlari mexnatini rag'batlantirish, ular faoliyati samaradorligini oshirish va kadrlarning o'rnashib qolishi uchun shart-sharoitlar yaratish.

Xarajatlarning quyidagi guruhlari davlat budjetidan mablag' bilan ta'minlanadi;

1. Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar (bolali oilalarga nafaqa va stipendiya)

2. Ish haqiga qo'shimchalar

3. Capital qo'yilmalar

4. Boshqa xarajatlar

G'azna ijrosiga o'tgan budjet tashkilotlarining xarajatlari moliya vazirligining G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari tomonidan yagona

g'azna hisob raqamidan, shuningdek yuqorida ko'rsatilgan xarajatlar guruhlarining har bir moddasi bo'yicha hududiy g'aznachilik hisob raqamidan amalga oshiriladi.

Smetalar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan davlat budjeti daromadlari va xarajatlarning amaldagi tavsifnomasiga muvofiq xarajatlarning to'liq yoyilmasi ilova qilingan holda xarajatlarning 4 guruhi bo'yicha tuziladi. Isteriya hisobi

II bob. Kasb hunar kollejlarning buxgalteriya hisobi va moliyalashtirish tartibi

2.1 Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobining yuritilish asoslari

Budget tashkiloti-bu zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan o'z faoliyatini amalga oshirish uchun davlat budgetidan mablag' ajratish nazarda tutilgan va bu mablag' moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadigan davlat tashkilotidir.

Budget tashkilotlari davlat funksiyalarini bajaruvchi, davlat tomonidan nazorat qilinadigan va davlat budgetidan moliyalashtiriladigan institutsional birliklar hisoblanadi.

Budget tashkilotlarining buxgalteriya hisobining maqsadi bo'lib, foydalanuvchilarni to'la, aniq va o'z vaqtida moliyaviy va boshqa buxgalteriya ma'lumotlari bilan ta'minlash hisoblanadi.

Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobining vazifasi bo'lib esa buxgalteriya hisobi schyotlarida aktivlarning holati va harakati, mulkiy huquqlari va majburiyatlarining holati to'g'risidagi to'la va aniq ma'lumotlarni shakllantirish; samarali boshqarish maqsadida buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini umumlashtirish hamda moliyaviy, soliq va boshqa hisobotlarni tuzish hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobining asosiy prinsiplari bo'lib: Buxgalteriya hisobini ikki yoqlama yozish usulida yuritish; uzluksizlik; xo'jalik operatsiyalari, aktivlar va passivlarning pulda baholanishi; ishonchlilik; hisoblash; ehtiyotkorlik; mazmunning shakldan ustunligi; ko'rsatkichlarning qiyosiyliqi; xisobotning betarafligi; hisobot davri daromadlari va xarajatlarning muvofiqligi; aktivlar va majburiyatlarning haqiqiy baholanishi hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobining ikki yoqlama yozish usuli bilan yuritish prinsipi budget tashkilotlarida xo'jalik operatsiyalarini buxgalteriya hisobida ikki yoqlama yozish asosida ro'yxatga olib boorish kerakligini bildiradi. Ikki yoqlama yozish tizimi aynan bir operatsiyaning summasini bir bankning o'zida buxgalteriya hisobining ikki schyotida-birining debitida boshqasining kreditida aks ettiriladi.

Buxgalteriya hisobining uzluksizlik prinsipi budget tashkiloti doimiy faoliyat ko'rsatadigan va noma'lum uzoq muddatgacha o'z faoliyatini davom ettiradigan bo'lishini hamda Buxgalteriya hisobini yuritish muddati budget tashkilotlarining ffaoliyat ko'rsatish muddatiga mos kelishi kerakligini bildiradi.

Xo'jalik operatsiyalarini, aktivlarning va passivlarning pulda baholanish prinsipi barcha xo'jalik operatsiyalari, hodisalar, aktivlar va passivlar yagona, bir turdagi pul bahosida o'lchanishi kerakligini bildiradi. O'zbekiston Respublikasida milliy pul o'chovi bo'lib so'm va uning qismi tiyin hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobining ishonchlilik prinsipi axborot, unda jiddiy yoki oldindan o'ylab kiritilgan hatolar bo'lmasa hamda foydalanuvchilar unga ishonsalar, ishonchli bo'lishini bildiradi.

Hisoblash prinsipi aktivlar, passivlar, daromadlar, xarajatlar, xo'jalik operatsiyalar va hodisalar sodir etilgan paytida buxgalteriya hisobida aks ettirilishini bildiradi.

Mazmunning shakllardan ustunligi prinsipi agar axborotlar hisob hujjatlarida va hisobotlarda operatsiyalar va hodisalarning mazmunini ishinchli aks ettirsa, bu axborotlar hisobga olingan va hisobotda taqdim etilgan bo'lishini bildiradi.

Ko'rsatkichlarning qiyosiyli prinsipi keltirilgan axborot uning ishonchliligini ta'minlash uchun oldindan bichib-to'qib qo'yishdan holi bo'lish kerakligini bildiradi.

Hisobot davri daromadlari va xarajatlarning muvofiqligi prinsipi mayyan davrda shu davr daromadlarining olinishini shart qilgan xarajatlarnidina aks ettirilishini bildiradi.

Aktivlar va majburiyatlarning haqiqiy baholanishi prinsipi aktivlar va majburiyatlarning asosiy baholanishi ularning tannarxi yoki sotib olingan qiymati bo'lishini nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi"gi qonunga muvofiq Buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etishni tashkilot raxbari amalga oshiradi.

Budjet tashkilotining raxbari: budjet tashkilotida Buxgalteriya hisobini to'g'ri yuritilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga; hujjatlarni rasmiylashtirish, hujjatlarni va ma'lumotlarni hisobga olish uchun taqdim etish masalalari bo'yicha bosh buxgalterning talablarini hisobga olish hisobga aloqasi bo'lgan tashkilotning barcha tarkibiy bo'linmalari va xodimlari tomonidan bajarilishini ta'minlashga ma'suldir.

Budjet tashkiloti raxbari **mazkur tashkilotda** hujjatlarni imzolash huquqiga ega bo'lgan shaxslarning ikkita ro'yhatini tasdiqlaydi. Birinchi ro'yxatga-raxbarlik vazilarini amalga oshiruvchi shaxslar, ikkinchisiga-buxgalteriya hisobi va moliyaviy boshqarish vazifalarini amalga oshiruvchi shaxslar kiradi. Yuqorida ko'rsatilgan shaxslarning imzosi bo'lmagan hujjatlar haqiqiy hisoblanmaydi.

Budjet tashkilotlari budjet va budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha buxgalteriya hisobini O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuniga, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining "Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi yo'riqnomasiga va boshqa normativ hujjatlarga yagona uslubiyatni qo'llab yagona tizim bo'yicha tashkil qiladi.

Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi "Yo'riqnama-2169"ga muvofiq buxgalteriya hisobi yuritishning memorial order shaklida olib boriladi.

Buxgalteriya hisobining memorial order shakli

Bu shakl qo'llanilganda ayrim boshlang'ich hujjatlari yoki guruhlovchi va yig'uvchi vedemostlar asosida memorial order tuziladi va har bir memorial orderning umumiy summasi ro'yxatga olish jurnaliga yoziladi. Memorial orderning ma'lumotlari bosh kitobga yoki bosh kitobning o'rnini bosadigan nazorat vedemostiga yoziladi.

Bunda debit subschyot bo'yicha korrespondensiyalanuvchi kreditlanuvchi subschyotlar hamda kredit subschyoti bo'yicha korrespondensiyalanuvchi debitlanuvchi **subschyotlar** ko'rsatiladi. Oy tugagandan keyin har bir subschyotning debiti va krediti bo'yicha yozuvlar jami sintetik schyotlar bo'yicha

aylanma vedemostga o'tkaziladi. Bu vedemostning jami ro'yxatga olish jurnali bo'yicha jami summa bilan solishtiriladi. Memorial orderga ilova qilingan hujjatlarning ma'lumotlari bo'yicha analitik hisob schyotlari olib boriladi; oyning ohirida ular asosida aylanma vedemost tuziladi; sintetik schyotlar bo'yicha summalar aylanma vedemost bilan solishtiriladi. Sintetik schyotlar bo'yicha aylanma vedemost asosida balans tuziladi.

Buxgalteriya hisobining jurnal-order shakli

Vazirliklar va idoralar ayrim hollarda budjet tashkilotlariga xarajatlar smetalarining ijrosini buxgalteriya hisobini belgilangan tartibda ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi bilan kelishilgan ko'rsatmalar bo'lsa buxgalteriya hisobining jurnal-order shaklida olib borishga ruxsat berish mumkin.

Buxgalteriya hisobining jurnal-order shakli boshlang'ich hisob hujjatlari ma'lumotlarining sintetik va analitik hisobini olib borish uchun kerak bo'lishi nuqtai nazaridan kelib chiqib yeyish prinsiplaridan foydalanishga asoslangandir. Hisobning bu shaklida yig'uvchi registrnlarning ikki xili qo'llaniladi: jurnal-order va yordamchi vedemostlar.

Boshlang'ich hisob hujjatlarining yoki yordamchi va guruhlovchi vedemostlarning ma'lumotlari har bir sintetik schyotga alohida yuritiladigan jurnal-orderga yoziladi. Jurnal-orderlar kredit alohati bo'yicha korrespondensiyalanuvchi debitlanuvchii schyotlar bilan amalga oshiriladi. Jurnal-orderlarning oylik jami, bosh kitobga o'tkaziladi. Bu bosh kitob memorial order shaklida olib boriladigan bosh kitobdan shaklan farq qiladi, chunki schyotning krediti bo'yicha kredit aylanmaning umumiy summasini korrespondensiyalanuvchi debitlanuvchi schyotlar bo'yicha bo'linmasdan yozish uchun bir ustun ko'zda tutiladi. Bosh kitob asosida balans tuziladi.

Jurnal-orderlarda ko'pgina schyotlar bo'yicha sintetik va analitik hisoblar birga olib boriladi.

Budjet tashkilotlarining xabarlar va bosh kitoblari, hisobchilari, buxgalteriya xizmatining xabarlar o'zlarining tizimidagi tashkilotlarda buxgalteriya hisobini yuritishini va moliyaviy hisobotlarni to'g'ri tuzilishini nazorat qilib turadi.

Shu o'rinda "hisobchilik", "hisobchi", "buxgalteriya hisobi" va "buxgalter" degan atamalarga tushuncha berib o'tmoqchiman.

Hisobchilik-bu moliyaviy operatsiyalarni ro'yxatga olish va moliyaviy hujjatlashtirishni olib borish jarayonidir. Bu jarayon bilan shug'ullanuvchi xodim "buxgater" deb nomlanadi.

Xo'jalik operatsiyalari-bu subyektning moliyaviy holatiga ta'sir etuvchi iqtisodiy hodisalardir.

Buxgalteriya hisobi-moliyaviy hujjatlashtirishni olib borish jarayoni bilan bir qatorda, moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan foydalanuvchilarning talablariga mos ravishda axborot tizimini yaratish jarayonini ham o'z ichiga oladi.

Buxgalteriya hisobining asosiy maqsadi-bu axborotlarni tahlil qilish, tushuntirish va foydalanishdir. Buxgalteriya hisobi-bu subyekt to'g'risidagi moliyaviy ma'lumotlarni o'lchash, ishlash va taqdim qilishni ta'minlaydigan tizimidir.

Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobida qo'llaniladigan hujjatlar

Hisob registrilarida yozuvlar buxgalteriya hujjatlari asosida qilinadi. Boshlang'ich hisob hujjatlari xo'jalik operatsiyalari amalga oshirilayotgan vaqtda yoki ular amalga oshirilgandan keyin tuziladi.

Buxgalteriya hisobining tezkorligini va ishonchligini ta'minlash uchun hujjat ma'lum xo'jalik operatsiyasini tavsiflaydigan ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. Boshlang'ich hujjatning ko'rsatkichlar (rekvizitlari)

- Bu hujjatda qayd qilingan xo'jalik operatsiyasini tavsiflaydigan va yuridik kuchga ega bo'lishi uchun ular quyidagi rekvizitlarga ega bo'lishi kerak: tashkilotning nomi, hujjatning nomi va raqami; u tuzilgan sana va joy; xo'jalik operatsiyasining nomi, mazmuni va miqdori; xo'jalik operatsiyasi amalga oshirilishiga va uning to'g'ri rasmiylashtirilishiga javobgar shaxslarning shaxsiy imzolari va ularning ta'biri.

Budjet tashkilotlarining budjet va budjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha buxgalteriya hisobida qo'llaniladigan hujjatlar

1. Buxgalteriya ma'lumotnomasi (433-shakl)
2. Budjet tashkilotlarida asosiy vositalarni qabul qilish, topshirish to'g'risidagi dalolatnoma (AB-1 shakl)
3. Asosiy vositalarni ichki joydan joyga ko'chirish bo'yicha yuk xati (AB 2 shakl)
4. Qo'shimcha qurilgan, qo'shimcha asbob uskunalar bilan jihozlangan, rekonstruksiya yoki modernizatsiya qilingan asosiy vositalarni qabul qilish va topshirish bo'yicha dalolatnoma (AB-3 shakl)
5. Yuk xati (talabnoma) (434-shakl)
6. Budjet tashkilotlarida asosiy vositalarni hisobdan chiqarish to'g'risida dalolatnoma (AB-4 shakl)
7. Budjet tashkilotlarida transport vositalarini hisobdan chiqarish to'g'risida dalolatnoma (AB-4a shakl (budjet))
8. Budjet tashkilotlari kutubxonasida mavjud bo'lgan adabiyotlarni hisobdan chiqarish bo'yicha dalolatnoma (444-shakl)
9. Oziq-ovqat maxsulotlari berish uchun menyu-talabnoma (299-shakl)
10. Berilgan ozuqa va yem xashak qaydnomasi (410-shakl)
11. Tashkilot ehtiyoji uchun berilgan materiallar qaydnomasi (410-shakl)
12. Zabor karta (431-shakl)
13. Kassa kirim orderi (KO-1-shakl)
14. Chiqim kassam orderi (KO-2-yil)
15. Kassadan hisobdor shaxslarga pul berish bo'yicha qaydnoma (317-shakl)
16. Bolalarning davomat hisobi bo'yicha table (305-shakl)
17. Ta'lim muassasalarida bolalar saqlanganligi uchun ularning ota-onalari bilan olib boriladigan hisob kitoblar qaydnomasi (327-shakl)
18. Avans hisoboti (286-shakl)
19. Foydalanilgan ish vaqti hisobi va ish haqi hisoblash tabeli (421-shakl)
20. Ish haqi, avans berish uchun to'lov qaydnomasi (389-shakl)
21. Hisob-kitob to'lov qaydnomasi (T-49-shakl)
22. Ta'lim berish bo'yicha hisob yozuvi (425-shakl)

23. Deponentlangan summalar reestri (414-yil)

24. Hujjatlarni topshirish bo'yicha reestr (442-shakl)

Boshlang'ich hujjatlarda yozuvlar siyoh bilan, sharikli ruchka pastasi bilan, kimyoviy qalam bilan yoki turli texnik vositalar yordamida amalga oshiriladi. Boshlang'ich hujjatlarda bo'sh qatorlar chizib chiqiladi.

Buxgalteriyaga tushgan boshlang'ich hujjatlar albatta shakl bo'yicha va mazmun bo'yicha topshiriladi.

Hujjatlardan ma'lumotlarning ishonchliligiga boshlang'ich hujjatlarning o'z vaqtida va sifatli tuzilganligiga ushbu hujjalarni tuzgan va imzolagan shaxslar javob beradilar.

Tekshirilgan va hisobga olingan hujjatlar operatsiyalarning amalga ooshirilgan sanasi bo'yicha tartiblashtiriladi va quyidagi doimiy raqamlar berilgan tegishli memorial order jamlanma qaydnomalar bilan rasmiylashtiriladi.

1- memorial order "Kassa operatsiyalari bo'yicha tanlanma qaydnoma" (381-shakl)

2- memorial order "Budjet mablag'larining harakatiga doir jamlanma qaydnoma" (381-shakl)

3- memorial order "budjetdan tashqari mablag'lar harakatiga doir jamlanma qaydnoma" (381-shakl)

4- memorial order "Ish haqi va stipendiyalar bo'yicha hisob-kitob varaqalarini yig'indisi" (405-shakl)

5- memorial order "Turli korxona va tashkilotlar olib boriladigan hisob kitoblar bo'yicha jamlanma qaydnoma" (408-shakl)

8- memorial order "hisobdor shaxslar bilan hisob kitoblar bo'yicha jamlanma qaydnoma" (386-shakl)

9- memorial order "asosiy vositalarning hisobdan chiqarilshi joydan joyga ko'chirilishi bo'yicha jamlanma qaydnoma" (438-shakl)

11- memorial order "ooziq-ovqat mahsulotlarining kirimiga doir jamlanma qaydnoma" (398-shakl)

12- memorial order "ooziq-ovqat mahsulotlarining ssarfiga doir jami qaydnoma" (411-shakl)

13- memorial order "Memoriallar ssarfiga doir jamlanma qaydnoma" (396-shakl)

15- memorial order "Bolalarni saqlaganlik uchun ota-onalar bilan olib boriladigan hisob-kitoblar bo'yicha jamlanma qaydnoma" (406-shakl)

Memorial order (274-shakl)

Qolgan operatsiyalar va "Storio" operatsiyalari bo'yicha alohida 16 raqamdan boshlab raqamlanadi.

Memorial orderlar bosh buxgalter yoki o'rinbosari hamd mazkur memorial orderni tuzgan shaxs tomonidan imzolanadi.

Har bir hisobot oyi tugagandan so'ng barcha memorial orderlar, memorial orderlar-jamlanma qaydnomalar ularga tegishli hujjatlar birgalikda xronologik tartibda taxlangan va kitob qilingan bo'lishi kerak.

Kirobning muqovasiga: budjet tashkilotining nomi; kitobning nomi vva tartib raqami; hisobot yili; memorial orderlarning boshlang'ich va oxirgi raqami; kirobdagi varaqlarning soni yozib qo'yiladi.

2.2. Koson maishiy kasb-hunar kollejini moliyyalashtirish tartiblari

Budjet tashkiloti zimmasiga-yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan o'z faoliyatini amalga oshirish uchun davlat budjetidan mablag' ajratish nazarda tutilgan va bu mablag' moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadigan vazirlik, davlat qo'mitasi, idora davlat tashkiloti hisoblanadi. Budjet tashkilotlarini moliyalashtirish ular uchun tasdiqlangan xarajatlar smetalariga asosida ega bo'lishi kerak. Xarajatlar smetasi budjet tashkiloti tadbirlarni amalga oshirishga budjetdan beriladigan mablag'larning hajmini, maqsadli yo'nalishini va choraklar bo'yicha taqsimotini belgilovchi asosiy moliyaviy reja hujjati hisoblanadi.

Har bir budjet tashkilotini O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan tasdiqlangan budjetdan moliyalashtirish me'yorlariga asoslangan holda tasdiqlangan namunaviy shtatlar asosida smetalar, shuningdek shtat jadvallarini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi.

Doimiy faoliyat ko'rsatuvchi budjet tashkilotlari bo'yicha smetalar bir yillik muddatga moliya yiliga tuziladi va amal qiladi. Joriy yilda ishga tushiriladigan yoki mavsumiy tashkilotlar bo'yicha esa ularning budjet yilida ishlagan muddatiga tuziladi. Xarajatlar smetasi budjet tashkilotlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlari va xarajatlarning amaldagi tasnifiga muvofiq xarajatlar guruhi bo'yicha boshqa xarajatlar va ularning hisob-kitobini o'z ichiga olgan to'liq yozilmasi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan shakllari asosida tuziladi va O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan tasdiqlangan shakllari asosida tuziladi va O'zbekiston Respublikasi va Qaraqalpog'iston Vazirliklari va idoralari rahbarlari tomonidan viloyat, tuman va shahar hamda shaharga bo'ysunuvchi tumanlar budjetlari bo'yicha tegishlari hokimiyatlarining boshqarma raxbarlari tomonidan tasdiqlanadi.

Tuman, shahar va shaharga bo'ysunuvchi tumanlar budjetlarida turuvchi va markazlashgan buxgalteriyalar orqali xizmat ko'rsatiladigan tashkilotlar bo'yicha ayrim hollarda umuman budjet tasnifining tegishli paragrafi bo'yicha umumiy xarajatlar smetalari tuzilishi mumkin.

Umumiy smeta bir turdagi tashkilotlar guruhini saqlash xarajatlari budjetdan ajratiladigan mablag'larning hajmini maqsadli yo'nalishini va choraklar bo'yicha taqsimlanishini belgilovchi hujjat bo'lib hisoblanadi.

Umumiy smetalar, xizmat ko'rsatiladigan tashkilotlarining raxbarlaridan olingan buyurtmalar markazlashgan buxgalteriyada mavjud bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlariga muvofiq qabul qilingan hisob-kitob va hisobot ma'lumotlari asosida markazlashgan buxgalteriya asosida tuziladi.

Smetalarda tashkilot nomi va to'liq manzili, smeta turi tashkilotni mablag' bilan ta'minlaydigan budjet tasnifiga muvofiq bo'lim, bob va paragraph xarajatlarning umumiy summasi hamda xarajatlarning quyidagi turlari bo'yicha ajralgan holda ko'rsatiladi:

- 1) xarajatlarning 1-guruhi-ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar;
- 2) xarajatlarning 2-guruhi-ish haqiga qo'shimcha to'lovlar;
- 3) xarajatlarning 4-guruhi-boshqa xarajatlar.

bu xarajatlar choraklar bo'yicha to'liq yooyilgan holda smetaga ilova qilinadi, bunga xizmat safarlari xarajatlari, communal xizmatlar uchun xarajatlar telefon, axborot xizmatlari bo'yicha xarajatlar va boshqa xarajatlar xizmatlar to'lovi bo'yicha xarajatlar, asbob uskunalar, oziq-ovqat maxsulotlari sotib olish bo'yicha xarajatlar kiradi.

2.3 Koson maishiy xizmat kasb-hunar kolleji misolida

Koson maishiy xizmat kasb-hunar kollejiining smeta xarajatlarini ko'rib chiqish natijasida kollejning ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab quvvatlash mahalliy budjet organlarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Koson maishiy xizmat kasb-hunar kolleji o'z vazifalarini bajarish jarayonida bir qator xarajatlar qilishi zarur. Bu xarajatlar eng avvalo mamlakat iqtisodini rivojlantirish uchun yetuk malakali kadrlar yetishtirib chiqarish uchun mo'ljallangan, aholining turmush darajasini ko'tarish uchun rejalashtirilgan, ijtimoiy vazifalarni bajarishga ajratilgan aniq maqsadlarga qaratilgan xarajatlardan iborat bo'ladi. Koson maishiy xizmat kasb-hunar kollejiining ushbu xarajatlari budjet orqali moliyalashtirilishi barchamizga ayon. Koson maishiy xizmat kasb-hunar kollejiining egasi sifatida amaldagi meyoriy hujjatlarga asolanib umumiy hajmi budjet qonunchiligida belgilangan miqdorda pul mablag'larini ajratadi. Budjet xarajatlarida davlat hokimiyati, davlat boshqaruv organlari, moliya kredit idoralari tizimi orqali ta'siri tegishli mablag'larga ehtiyoj sezilgan paytdan boshlab ularni sarf xarajat kelgunga qadar bo'lgan butun davr mobaynida yuz berib turadi.

Ijtimoiy madaniy tadbirlarni o'tkazish va budjet tashkilotlarining alohida xarajatlarining belgilangan me'yorlarga asosan moliyalashtirish ijtimoiy-madaniy tadbir xarajatlari, avvalo, loyiha parametrlariga kiritiladi.

Fuqarolarning ijtimoiy taminotga bo'lgan huquqlari asosiy qonunimiz bo'lgan O'zbekiiston Respublikasi Konstitutsiyasida asoslanadi. Ijtimoiy yordam tizimini huquqiy asosda barpo etish va bu boradagi qonunlarni ijro etilishini moliyaviy ta'minlash bozor iqtisodiyoti sharoitida muhim vazifadir.

III-bob. Budjet va budjetdan tashqari moliyalashtirishni takomillashtirish masalalari

2008 yil 6 mayda “Budjet tashkilotlari daromadlari va xarajatlarining buxgalteriya hisobi to’g’risida nizom” qabul qilingan bo’lib, ushbu Nizom bilan budjet tashkilotlarining quyidagi daromadlari va xarajatlarining buxgalteriya hisobida aks ettirilishi tartibga solinadi:

- Budjet tashkilotlining rivojlantirish jamg’armasi mablag’lari bo’yicha;
- Tibbiyot muassasalarining moddiy rag’batlantirish va rivojlantirish jamg’armasi mablag’lari bo’yicha;
- Ta’lim muassasalarida o’qitishning to’lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag’lar bo’yicha.

Yuridik shaxs maqomini olgan budjet tashkilotlari banklarda (Moliya Vazirligining hududiy bo’linmalarida) belgilangan tartibda quyidagi hisobvaraqlarni oladilar;

a) banklarda:

- Budjet mablag’lari bo’yicha talab qilib olinguncha deposit hisobvarag’lari;
- Budjetdan tashqari mablag’lar bo’yicha talab qilib olishigfa deposit hisobvaraqlari;

- Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hisobvaraqlar;

b) Budjetdan mablag’ oluvchilarning shaxsiy hisobvaraqlarini O’zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi G’aznachiligida va uning hududiy bo’linmalarida yuitish qoidalarida ko’rsatilgan Moliya Vazirligining G’aznachiligi va uning hududiy bo’limlarida Davlat budjetining xarajatlar tasnifi bo’limlari, boblar va paragraflari bo’yicha shaxsiy hisobvaraqlar.

Budjet tashkilotining rivojlantirish jamg’armasining talab qilib olinguncha deposit hisobvaraqlaridagi yil oxiriga ishlatilmay qolgan qoldiq mablag’lari keyingi yilga o’tkaziladi.

Budjet tashkilotini rivojlantirish jamg’armasi:

- G’azna ijrosiga o’tmagan budjet tashkilotlari bo’yicha rejaga muvofiq mablag’ bilan ta’minlash hisobiga tushgan va hisobot choragining so’ngi ish kuni oxirida budjet tashkilotlari hisob raqamlaridagi tejab kelingan mablag’lar;

- G’azna ijrosiga o’tgan budjet tashkilotlari bo’yicha-hisobot choragining so’ngi ish kuni oxirida budjet tashkilotlarining Moliya Vazirligi G’aznachiligida va uning hududiy bo’limlarida ochilgan hisobvaraqlardan tejab qolingani mablag’lar;

- Budjet tashkilotlari faoliyati turiga muvofiq tovarlar ishlab chiqarish va sotishdan olingan daromadlar.

Budjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg’armalarining talab qilib olinguncha deposit hisobvarag’idan pul mablag’laridagi harakati bo’yicha operatsiyalarning analitik hisobi 381-sonli shakldagi jamg’arma qaydnomasida va 292-shakl “joriy hisoblar va hisob kitoblar daftarida yuritiladi”.

G’aznachilik xizmatiga o’tkazilmagan budjet tashkilotlari bo’yicha rejaga muvofiq budjetdan mablag’ bilan ta’minlash hisobiga tushgan va hisobot choragining so’ngi ish kuni oxirida budjet tashkilotlari hisob raqamlaridagi tejab qolingani mablag’lar qoldig’ini o’tkazishda quyidagi buxgalteriya o’tkazmalari amalga oshiriladi:

114- “Budjet tashkilotini jamg’armasining budjetdan tashqari mablaglari bo’yicha talab qilib olinguncha deposit hisobvarag’i” subhisob debiti;

090- “Respublika budjetidan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlarining talab qilib olinguncha deposit hisobvarag’i” subhisob varag’I krediti yoki 100- Mahalliy budjetlardan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlarining talab qilib olinguncha deposit hisobvarag’I” subhisob varaq krediti.

237- “G’aznachilik orqali tashkilotni saqlash va boshqa tadbirlarga amalga oshirilgan to’lovlar” subhisob varaq krediti.

Tovarlar ishlab chiqarish va sotishdan olingan daromadlarning buxgalteriya hisobi.

Budjet tashkilotlari tomonidan tovarlar ishlab chiqilishi va sotilishi “Budjet tashkilotlari tomonidan tovarlar ishlab chiqilishi va sotilishi tartibi” ga muvofiq tartibga solinadi.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxiga kiritiladigan xarajatlar quyidagi buxgalteriya xizmatlari bilan rasmiylashtiriladi.

a) Maxsulot ishlab chiqarish va boshqa maqsadlar bilan bog’liq bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar amalga oshirilganda;

08- “ishlab chiqarish va boshqa maqsadlar uchun xarajatlar” hisobvarag’ining tegishli subhisob varaqlari debiti bo’yicha;

04- “asbob uskunalar, qurilish materiallari, ilmiy tadqiqot ishlari uchun materiallar hamda ishlab chiqilgan buyumlar va maxsulotlar” hisobvaraqlari debiti bo’yicha;

06- “materiallar va oziq-ovqat maxsulotlari” va boshqa hisobvaraqlarining tegishli subhisobvaraqlari debiti bo’yicha;

b) Kelgusi ishlab chiqarish jarayonida foydalanish mumkin bo’lgan chiqindilarning qiymatiga;

04- “asbob uskunalar, qurilish materiallari, ilmiy tadqiqot ishlari uchun materiallar hamda ishlab chiqilgan buyumlar va maxsulotlar” hisobvaraqlari debiti bo’yicha;

06- “materiallar va oziq-ovqat maxsulotlari” va boshqa hisobvaraqlarining tegishli subhisobvaraqlari debiti bo’yicha;

08- “ishlab chiqarish va boshqa maqsadlar uchun xarajatlar” hisobvarag’ining tegishli subhisob varaqlari debiti bo’yicha;

B) mehnat haqi bo’yicha bevosita va bilvosita ishlab chiqarish jarayonlari amalga oshirilganda:

08- “ishlab chiqarish va boshqa maqsadlar uchun xarajatlar” hisobvarag’ining tegishli subhisob varaqlari debiti bo’yicha;

180- “xodimlar bilan mehnatga haq to’lash bo’yicha hisoblashuvlar” subhisobvarag’I va boshqa tegishli subhisobvaraqlari debiti bo’yicha.

Xulosa va takliflar

Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida xar bir sohada iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, budget sohasida olib borilayotgsn islohotlarni alohida ta'kidlab o'tish mumkin. Har bir davlatning iqtisodiy qudrati shu davlatning mukammal budgetga ega ekanligi bilan ham ifodalanadi. Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so'ng mana shu o'tgan davr ichida chuqur iqtisodiy siyosat negizida barqaror moliyaviy tizimni shuningdek, uning asosini tashkil etuvchi mahalliy budget mablag'laridan foydalanishni shakllantirish va ijro etish sohasida muayyan ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

- Markazlashtirilgan rejalashtirish tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tish birinchi navbatda boshqaruv tiizimi tarkibini o'zgartirish va jarayonlar davomida mahalliy boshqaruv organlarining rolini oshirib borishni talab etadi.

- O'zbekiston Respublikasida budget tizimi taraqqiyotining hozirgi bosqichi davlatning yaxlit budget va ijtimoiy siyosatning manfaatlari mushtarakligini ta'minlash asosidagi o'ta ma'suliyatli vazifalarni samarali boshqarishni talab etmoqdaki, ushbu vazifaning ikki jihatini ajratib ko'rsatish muhimdir.

- Birinchidan davlat ijtimoiy siyosatning jooylardagi ijrosi yoki hududiy iqtisodiyot keskinlashuvining oldini olishdir;

- Ikkinchidan mahalliy budgetlar huquq va majburiyatlarining kengayib borish sharoitida shunga mos tarzda ular imkoniyatlarini yaxshilashning zarurligidir;

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagilar taklif etiladi;

- 1) Davlat budgeti mablag'larining tushumi va sarfi ustidan nazoratni amalga oshirishda;

- 2) Davlat budgeti mablag'larini boshqarishda davlat budgetida mablag'lari nazarda tutilgan yuridik va jismoniy shaxslar nomidan va ularning topshirig'iga binoan to'lovlarni amalga oshirishda;

- 3) Budgetdan tashqari mablag'lar fondini shakllantirishning oshkoriligini ta'minlash;

- 4) Budget tashkilotlari budgetdan tashqari o'zlarining xizmatlarini ko'rasatishni takomillashtirish;

- 5) Director fondiga ko'proq budgetdan va o'z xizmatlarini ko'paytirish hisobida sarflash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari.

- 1.1. O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 26-avgustdagi "Davlat budjetining G'aznachilik ijrosi to'g'sida"gi qonuni
- 1.2. O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 14-dekabrda "Budjet tizimi to'g'risida"gi qonuni T.2000-yil

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari.

- 2.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 28-fevraldagi PQ-594-sonli "Davlat budjetining Ga'zna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

III. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari

- 3.1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentabrda 414-sonli "Budjet muassasalarini mablag' bilan ta'minlashni takomillashtirish to'g'risida"gi qarori va unga ilova qilingan "Budjet tashkilotlarini moliyalashtirish tartibi"
- 3.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 20-martda 53-sonli "O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining g'aznachilik to'g'risidagi nizom"ni tasdiqlash to'g'risidagi qarori.

IV. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari.

- 4.1 I.A.Karimov "Bosh maqsadimizning ko'lami islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish".-O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning 2012-yildagi mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013-yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. P Xalq so'zi. 2013-yil 19-yanvar № 13 (5687)
- 4.2 I.A.Karimov 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotining yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O'zbekiston ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majmuidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi 2012-yil 20-yanvar 14-sonli (5434)
- 4.3 I.Karimov "Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari". T. "O'zbekiston" 2009-yil 56-bet

V. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining meyoriy hujjatlari.

- 5.1. davlat budjetida turuvchi muassasalar va tashkilotlarda buxgalteriya hisobi bo'yicha 1987-yil 10-martda 61-sonli yo'riqnoma
- 5.2. O'zbekiston Respublikasida "Naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida "gi nizom (O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 1998-yil 8-oktabrda 496-soni bilan ro'yxatga olingan)

- 5.3. Budget tashkilotlari tomonidan tovar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish tartibi (O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 2000-yil 25-yanvarda 880-son bilan ro'yxatga olingan).
- 5.4. O'zbekiston Respublikasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi budgetlarida , shuningdek viloyat, shahar va tuman mahalliy budgetlarida turuvchi tashkilotlarning xarajatlar smetalarini tuzish, ko'rib chiqish va tasdiqlash to'g'risidagi yo'riqnoma (O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 2000-yil 3-fevralda 888-son bilan ro'yxatga olingan)
- 5.5. O'zbekiston Respublikasi "Davlat budgetining kassa ijrosi to'g'risida"gi yo'riqnoma (O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 2001-yil 19-fevralda 1009-son bilan ro'yxatga olingan)
- 5.6. "Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi yo'riqnoma (O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 2010-yil 22-dekabrda 2169-son bilan ro'yxatga olingan)
- 5.7. Davlat moliyasi tizimi. Normativ-huquqiy hujjatlar to'plami 1.2.3-jildlar T. O'zbekiston 2002
- 5.8. O'zbekiston Respublikasi doirasida "xizmat safarlari to'g'risida"gi yo'riqnoma (O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 2003-yil 29-avgustda 1268-son bilan ro'yxatga olingan)
- 5.9. "Yagona ijtimoiy to'lovni hamda davlat ijtimoiy sug'urtasiga majburiy badallar va ajratmalarni hisoblas, to'lash va taqsimlash to'g'risida"gi Nizom (O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 2004-yil 6-avgustda 1333-son bilan ro'yxatga olingan)
- 5.10. O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetini g'azna ijrosi buxgalteriya hisobining yagona schyotlar rejasi (O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 2006-yil 3-mayda 1570-son bilan ro'yxatga olingan)

VI. Darsliklar va o'quv qo'llanmalar

- 6.1. Ostonoqulov M. Budget hisobi va budget ijrosining nazorati T. Moliya 2005
- 6.2. Ostonaqulov M. Budget tashkilotlari xarajatlar schyotlar ijrosining buxgalteriya hisobi-T. Zdravplus/DSAID 2004.
- 6.3. Ostonaqulov M. Budget tashkilotlarida yangi buxgalteriya hisobi. T. Moliya "Yangi asr avlodi" 2011
- 6.5. Ostonaqulov M. Budget tashkilotlari buxgalteriya hisobidan oxirgi o'zgarishlar-T: iqtisod-moliya 2007
- 6.6. Ostonaqulov M. последние изменение В бухгалтерском учете бюджетных организации. T: iqtisod-moliya 2007

VII. Internet saytlari

<http://www.buxgalteriya.com.uz>

<http://www.referat.uz>

<http://www.gao.gov>

<http://www.lex.uz>

<http://www.mf.uz> O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi sayti

<http://www.gov.uz> O'zbekiiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasi sayti

<http://www-finansy.uz>-Финансы jurnalining sayti.